



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI**  
**URGANCH DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI REKTORI**  
**BUYRUG‘I**

2026-yil “19”-fevral      **51-IB-son**      Urganch shahar

**Institutda tyutorlar faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida**

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 10-dekabrda “Oliy ta‘lim tashkilotlarida joriy etilgan tyutorlik faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 501-sonli buyrug‘i 1-ilovasi 11.2-bandi ijrosini ta‘minlash maqsadida,

**BUYURAMAN:**

1. Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 10-dekabrda “Oliy ta‘lim tashkilotlarida joriy etilgan tyutorlik faoliyati samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 501-sonli buyrug‘ining 1-ilovasi 11.2-bandi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Institutda tyutorlar faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha Ishchi komissiya a‘zolari tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

**3. Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor (U.Xo‘jamuratov), Xodimlar bo‘limi boshlig‘i (Sh.Raximov) hamda Fakultet dekanlariga:**

institutda tashkil etilgan komissiya tomonidan tyutorlik faoliyatida ishlash istagi bo‘lgan nomzodlar o‘rtasida me‘yoriy hujjatlarga amal qilgan holda shaffof va adolatli tanlov o‘tkazish maqsadida ikki bosqichda test va suhbat jarayonlari tashkil etilsin;

tyutorlarni ishga qabul qilish jarayonida belgilangan me‘zonlar asosida ya‘ni pedagogik va psixologik, o‘quv-tarbiyaviy, o‘quv-uslubiy, boshqaruv faoliyati bilan shug‘ullangan hamda yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy yo‘nalishlarda faoliyat olib borgan nomzodlarga alohida e‘tibor qaratilsin.

**4. Matbuot kotibi (N.Kamilova)ga**

institutning rasmiy veb-sayti hamda rasmiy telegram kanalida 15-iyuldan 15-avgustga qadar tanlov bo‘yicha e‘lonlarni muntazam ravishda berib borish choralari ko‘rilsin.

**5. Devonxona mudiri (D.Bekberganova)ga:**

Ushbu buyruq tegishli mas‘ul xodimlarga o‘rnatilgan tartibda yetkazilishini ta‘minlasin.

**6.** Buyruq ijrosini nazorat qilish Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor **U.Xo'jamuratov** zimmasiga yuklatilsin.

**Asos:** Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2025-yil 10-dekabrda 501-sonli buyrug'i.

**Rektor**



**F.Madraximova**

EEV1736

EEV1736

EEV1736

EEV1736